

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MA'NAVY TARBIYASIDA RAQS SAN'ATINING O'RNI

Shermatov Narziddin

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsent.*

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolasida imkoniyati cheklangan bolalar ma'naviy tarbiyasida raqs san'atining o'rni haqida fikr yuritgan. Bugungi kunda mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar, muammolar haqida so'z yuritilgan, yechim sifatida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, **aqliy rivojlanish**, imkoniyati cheklangan, veb-forum, raqs, tarbiyachi, baletmeyster, ta'lim, san'at, madaniyat, ko'nikma, jarayon, faoliyat.

THE ROLE OF THE ART OF DANCE IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES

Shermatov Narziddin

*Associate Professor of the Department of Stage Movement and Physical Culture
State Institute of Art and Culture of Uzbekistan*

Abstract. In this article, the author reflects on the role of dance in the spiritual education of children with disabilities. Today, the work and problems being carried out in this regard in our country were discussed, proposals and recommendations were made as a solution.

Keywords: spiritual education, intellectual development, disabled person, Internet forum, dance, educator, choreographer, education, art, culture, skill, process, activity.

Respublikamizda ohirgi yillarda nogironligi bor bolalarga ham boshqa bolalar kabi teng imkoniyat va sharoit yaratish, ularning barcha huquqlarini ta'minlash o'ta muhim masala ekanligi ta'kidlanib kelinadi. Xususan, 2020 yil 19 noyabr kuni "Zamin" Xalqaro jamoat fondi Vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva «Bolalarning ta'lim olish huquqlari: pandemiya davrida dolzarbligi, uzluksizligi va innovatsiyalar» mavzusidagi xalqaro veb-forumda qatnashib nogironlik endilikda tibbiy masala emas, balki birinchi navbatda inson huquqlari masalasi deya qonuniy e'tirof etilganligi va nogironligi bo'lgan bolalar uchun to'siqlardan holi va inklyuziv muhitini yaratish orqali ularning to'liq va sifatli ta'lim olishini ta'minlash - bola huquqlarini amalga oshirishning samarali shakllaridan biri hisoblanishini ta'kidladilar.

“Shu o‘rinda nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatimizning barcha jabhalariga qo‘shish, ular barcha bilan teng bo‘lishi va o‘z o‘rinlarini topishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish “Zamin” xalqaro jamoat fondining asosiy maqsad va vazifalaridan biri ekanligini alohida ta’kidlamoqchiman. Har bir bola noyob va o‘ziga xosdir. Bolalar har xil bo‘lganligi bilan ularning huquqlari teng bo‘lishi lozim. Shu sababli, ta’lim jarayonlarida har bir bola uchun individual yondashuvni topish, hech bir o‘g‘il va qizni e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur!”, dedi Ziroat Mirziyoyeva. Darhaqiqat, bolalar ta’lim jarayoni, ayniqsa nogironligi bo‘lgan bolalarning ma’naviy tarbiyasiga alohida yondoshuv talab etiladi. **Nogironligi bor bolalarni alohida e’tibor bilan tarbiyalashni avvalo oiladan boshlash zarur. Ertak kitob o‘qib berish, she’r yodlash, maqollar aytish va uning ma’nosini tushuntirish, bolalar yoshiga xos rasmlarni izohlash, imkoniyatiga qarab ashula aytirish yoki eshittirish, musiqa asboblarini chalishga o‘rgatish kabi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, raqsga tushishga qiziqtirish lozim.** “Bolalarga musiqa inson hayotining tabiiy bo‘lagi ekanligini, bayramlar, tug‘ilgan kunlarda albatta qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, raqsga tushish, oilaviy yoki do‘stlari bilan birga konsertlar tomosha qilish haqida gapirish musiqiy ta’lim-tarbiya berishning asosiy talablari hisoblanadi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, san’at turlari qatorida raqs san’ati orqali ta’lim-tarbiya berish ma’naviy tarbiyaning asosiy bir bo‘g‘ini hisoblanadi. **Chunki, raqsga tushish ishtiyoqiga hech qanday yosh yoki ijtimoiy holat to‘siq bo‘la olmaydi. Raqs san’ati bolalarning ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishiga katta yordam beradi. Raqsni tomosha qilgan yoki uni ijro etgan bolaning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga hayotga, orzu-havaslariga, kasbga qiziqishi, intilishi ortishiga ko‘mak beradi.**

“Raqs san’ati ta’limi bolalarda tasavvur, erkin fikrlash va uni boshqalarga yetkaza olish qobiliyatini o‘stiradi, uning faolligini oshirib sezgirlik va ziyrakligini shakllantiradi. Buning uchun musiqa rahbari yoki baletmeyster guruhdagi bolalarning tabiatiga, jismonan va aqlan sog‘lomligiga e’tibor qaratishi lozim”. Odatda jismonan nosog‘ bo‘lgan bolalarning raqsda tez charchab qolishi kuzatiladi. Harakat bezovtaligi, o‘ziga ishonchsizlik, jismoniy charchashlar raqsga kirishishda qiyinchilik tug‘diradi. Bunday paytlarda bolalarni toliqtirib qo‘ymaslik uchun ozroq mashq qilganidan so‘ng dam oldirish maqsadida bolalar bilan raqs san’ati haqida suhbatlashish, fikrlarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rgatiladigan raqslardagi harakatlar bolalar imkoniyatlariga mos, raqs mavzusi esa ular hayotidagi voqealarga qaratilgan bo‘lishi kerak. Masalan, “Qo‘g‘irchoq” raqsi bolalar o‘yinchog‘ining jonlanishi orqali raqsga tushish mumkinligi, “Ta’zim” qilishi orqali insonlarga salom berish kerakligi, ko‘zlarini pirpiratishi orqali atrof-muhitga munosabat haqida fikr uyg‘otadi. “Sho‘x qiz” raqsi esa doirachi bilan bolalarcha bo‘lgan muloqotda quvnoqlik, sho‘xlik, chaqqonlik namoyon bo‘ladi. “Cho‘pon” raqsida esa yosh bolaning mehnat qilish

jarayoni tasvirlangan. Ushbu raqs mehnatga yo'naltirilgan bo'lib, beparvolik oqibatida boqib yurgan qo'ylaridan birini yo'qotib qo'ygani, havotirga tushgani, topib olgan paytidagi quvonchi, buning natijasida vazifaga ma'suliyat bilan yondoshish kerakligi ko'z oldida namoyon bo'ladi. Bu kabi raqslar bola ongida raqslar orqali vatanga, oilaga, do'stlariga mehr-muhabbat uyg'otish, mehnat qilishga ko'nikma hosil qiladi.

Bolalarning ongiga "Biz hech kimdan kam emasmiz, biz ham raqsga tushishni uddalaymiz"-degan fikrni singdirish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimizda azaldan yosh bolalarning ta'lim-tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelingan. Urf-odat va an'analarimiz orqali o'zbek oilalari ongiga singib ketgan, o'ziga xos tarbiya vositalari mavjud. Ayniqsa, tarbiyaviy ahamiyatga ega raqslar ma'naviy tarbiya masalasida o'zining salmoqli va ahamiyatli o'rniga ega.

Adabiyotlar

1. Абрайкулова, Н.Е. (2019). ТАНЕЦ "МУНОДЖАТ" И ЕГО ХОРЕОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ. Научный вестник Наманганского государственного университета, 1(4), 376-379.

2. Абрайкулова, Н. (2003). Методы работы с танцевальным коллективом. Т.: Народное наследие имени А. Кадири.

3. Абрайкулова, Н. Э. (2018). ТВОРЧЕСКАЯ РАБОТА ХОРЕОГРАФА-ПЕДАГОГА С КОНЦЕРТМЕЙСТЕРОМ ХОРЕОГРАФИИ. *Мировая наука*, (5), 142-145.

4. Дўсанов Р.Р. (2023) БАХШИЛАР "БИР АКТЁР ТЕАТРИ" ИЖРО УСЛУБИ АСОСЧИЛАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННҚЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(3), 109-115.

5. ЗК Фазлиева. ВЗАИМОСВЯЗЬ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ТАНЦА"//Теория и практика современной науки. – 2018. – Т. 4. – С. 534-537.

6. Зокирова С.М. (2021). Балет-Искусство Блистательного Танца. ТА`ЛИМ VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 72-73.

7. Зокирова С.М. (2017). Творческий процесс постановщика танца. Молодой ученый, (11), 428-430.

8. Зокирова Саида Муратовна, «ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ ДВИЖЕНИЯ И ПЛАСТИКА ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ.» ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННҚЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.1 (2023): 134-137.

9. Kamarbekovna F. Z. THE ROLE OF THE COMPOSER IN THE ART OF CHOREOGRAPHY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 2-2.

10. MAMIROVA, D. (2019). ASSOCIATION OF PHYSICAL PREPAREDNESS AND ACTOR MASTERY IN A SINGLE APPROACH DURING FUTURE SPECIALISTS TRAINING. *Culture and Arts of Central Asia*, 9(1), 68-72.

11. Mamirova, D. T., Abraykulova, N. E., Fazlieva, Z. K., Zokirova, S. M., & Jumaev, S. S. (2022). The Manifestation Of Creative Potential By Integrating Physical Culture And Departments Of The Youth Movement In Uzbekistan. *Journal of Positive School Psychology*, 6(7), 5221-5228.

12. Mamirova, D. T. (2019). INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE ON THE FORMATION OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 430-433.

13. Мамирова, Д.Т. (2022). РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРИКЛАДНОЙ ПОДГОТОВКЕ В ВУЗАХ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 107-113.

14. Маннонов С. Ш., Фазлиева З. К. ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР //Oriental Art and Culture. – 2021. – №. 8. – С. 99-105.

15. Юсупова, В.И., & Останина О.А. (2019). ИННОВАЦИОННО-КУЛЬТУРНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp.232-233).

16. Ismetovna, Y.V., Anatolevna, O.O., Ljuraevna, U.L., & Erkinovna, A.N. (2021). Peculiarities of theatrical art. *Emergent:Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-4.

17. Юсупова, В.И., & Останина, О.А. (2020). Специфика постановки пьесы Уильяма Шекспира «Гамлет» на узбекском языке на сцене учебного театра Государственного института искусств и культуры Узбекистана. In Язык и культура (pp.254-259).

18. Tavakulovna, M. D., Erkinovna, A. N., Kamarbekovna, F. Z., Muratovna, Z. S., & Saidovich, J. S. (2022). Physical education and “union of youth” as an application of creative potential in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 430-439.